Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

DIFFERENSIAL YONDASHUVDA O'QUV MATERIALLARINI TANLASH, MOSLASHTIRISH VA INDIVIDUALLASHTIRISH TAMOYILLARI

Mokhirabonu Soyibjon qizi Ahmadjonova*
Farg'ona davlat universiteti 2-kurs doktoranti
✉ ahmadjonova.mokhirabonu@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda differensial yondashuv asosida ingliz tili ta'limida o'quv materiallarini tanlash, moslashtirish va individuallashtirish tamoyillari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Talabalarning til darajasi, individual ehtiyojlari, qiziqishlari va kognitiv imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini ishlab chiqishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, Selection, Adoption va Adaptation bosqichlarining ingliz tilida reading va writing ko'nikmalarini rivojlantirishdagi metodik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar

differensial yondashuv, o'quv materiallari, individuallashtirish, moslashtirish, reading, writing, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743533

Kirish

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida differensial yondashuv talabalarning individual xususiyatlari, bilim darajasi va ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishning samarali metodik tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitishda barcha talabalar uchun bir xil mazmundagi va murakkablikdagi topshiriqlardan foydalanish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Chunki talabalar til kompetensiyasi, o'zlashtirish sur'ati va o'quv motivatsiyasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Shu sababli o'quv materiallarini tanlash, moslashtirish va individuallashtirish masalasi dolzarb metodik muammolardan biri hisoblanadi [1, B. 5–8].

Differensial yondashuv asosida o'quv materiallarini ishlab chiqish uch asosiy bosqich orqali amalga oshiriladi: **Selection (tanlash), Adoption (qo'llash va baholash), Adaptation (moslashtirish)**.

Selection bosqichida talabalarning CEFR darajasi, kasbiy yo'nalishi, kommunikativ ehtiyojlari va mavjud bilimlari tahlil qilinib, ularga mos materiallar tanlanadi. Mazkur bosqichda materiallarning mazmuni, til murakkabligi va o'quv maqsadlariga muvofiqligi asosiy mezon sifatida olinadi.

Adoption bosqichida tanlangan materiallarning amaliy samaradorligi baholanadi. Ushbu jarayonda materiallarning talabalarning qiziqishi, faolligi va o'zlashtirish darajasiga ta'siri aniqlanadi.

Adaptation bosqichida esa mavjud o'quv materiallari talabalar ehtiyojiga mos ravishda qayta ishlab chiqiladi. Bunda matn hajmi, topshiriq murakkabligi, faoliyat turi va metodik ko'rsatmalar individuallashtiriladi [2, B. 18–22].

Differensial material dizayni talabalarning til darajasiga mos ravishda tashkil etilishi mumkin. B1 darajadagi talabalar uchun qisqa hajmdagi matnlar, lug'aviy yordam, namunaviy yozuv strukturalari va yo'naltiruvchi topshiriqlar samarali hisoblanadi. B2 darajadagi talabalar uchun tahliliy matnlar, muammoli

savollar, fikrni asoslash va strukturali yozuv faoliyatlari qo‘llaniladi. C1 darajadagi talabalar uchun esa akademik matnlar, ilmiy maqolalarni tahlil qilish, argumentativ esse yozish va mustaqil tadqiqot topshiriqlari tavsiya etiladi.

Bunday yondashuv talabalarning reading va writing ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi [3, B. 315–320].

Differensial yondashuvning nazariy asoslari L. S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi, H. Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasi hamda E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan Self-Determination Theory konsepsiyasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyalar talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, unga mos ta’limiy topshiriqlarni taqdim etish va ichki motivatsiyasini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi [4, B. 84–91; 5, B. 9–15].

Tajriba-sinov jarayonida differensial yondashuv asosida ishlab chiqilgan materiallardan foydalanish talabalarning individual rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra talabalar tayyorgarlik darajasiga ajratilib, har bir guruh uchun moslashtirilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Natijada talabalarning darsdagi faolligi, motivatsiyasi va ingliz tilida yozma hamda o‘qish kompetensiyalari rivojlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, differensial yondashuv asosida o‘quv materiallarini tanlash, moslashtirish va individuallashtirish ingliz tilida reading va writing ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim metodik asoslaridan biridir. Selection, Adoption va Adaptation bosqichlarini tizimli ravishda qo‘llash talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, o‘quv motivatsiyasini oshirish va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bois differensial yondashuv asosida ishlab chiqilgan o‘quv materiallari zamonaviy ingliz tili ta’limida talabalarning bilim darajasidagi farqlarni hisobga olish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Deci E. L., Ryan R. M. *Self-Determination Theory.* New York: Guilford Press, 2017.
2. Hyland K. *Second Language Writing.* Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
3. McGrath I. *Materials Evaluation and Design for Language Teaching.* Edinburgh: Edinburgh University Press, 2013.
4. Tomlinson C. A. *The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners.* Alexandria: ASCD, 2014.
5. Vygotsky L. S. *Mind in Society.* Cambridge: Harvard University Press, 1978.